



SOLIQ MA'MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZARURATI VA ASOSIY YO'NALISHLARI NAZARIYASI

Xusanov Shoxrux Nigmatullaevich

O'zbekiston Respublikasi Bakh-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada soliq ma'murchiligini takomillashtirish zarurati, uning iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishdagi o'rni hamda asosiy nazariy yo'nalishlari tahlil qilinadi. Soliq tizimini samarali boshqarish va davlat byudjetiga tushumlarni barqaror ta'minlashda ma'murchilik mexanizmlarini zamonaviylashtirish muhim omil sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda ilg'or xorijiy tajribalar asosida O'zbekiston sharoitiga mos keladigan takomillashtirish usullari tavsiya etiladi. Soliq organlari faoliyatining ochiqqligi, raqamlashtirish darajasi va soliq to'lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish orqali ma'murchilikni samarali amalga oshirish yo'llari yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *soliq ma'murchiligi, iqtisodiy barqarorlik, byudjet tushumlari, nazariy asoslar, raqamlashtirish, soliq siyosati, boshqaruv tizimi, xorijiy tajriba*

Kirish. O'zbekistonning o'rta muddatli rivojlanish bosqichida iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish yo'nalishida "soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag'batlantiruvchi choralarni kengaytirish" vazifasi belgilab berilgan [1].

Soliq tizimi haqida gap borganda ko'pincha uning barqaror vanobarqaror ekanligi ta'kidlanadi. Soliq tizimining barqaror yoki nobarqarorligi bir tomondan, davlat byudjetini daromad manbasini shakllantirish, ikkinchi tomondan, tadqiqot obektimiz bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari faoliyatini soliq yuki bilan cheklab qo'ymaslik zaruriyati bilan belgilanadi.

Zamonaviy iqtisodiy taraqqiyot paradigmasida iqtisodiyotni fiskal siyosat instrumentlari vositasida tartibga solish va uning samaradorligiga oid turli nazariy qarashlar mavjuddir. Xususan, J. Keyns fiskal siyosat instrumentlari (soliqlar, davlat xarajatlari, ijtimoiy transfertlar, davlat qarz instrumentlari) orqali yalpi talabni samarali rag'batlantirish imkoniyatlariga ega bo'linishini e'tirof etadi [2]. Shuningdek, fiskal siyosat instrumentlarini pulga nisbatan transaksion talab, foiz stavkalari va investitsiyalarni siqib chiqarish samarasiga past ta'siri sharoitida yalpi ishlab chiqarishni rivojlantirishda multiplikativ samaraga egaligiga oid ilmiy qarashlarini tizimlashtirgan.



Soliqlar fiskal siyosatning bir qismi sifatida namoyon bo'lishini K.Makkonell va S.Bryular ham o'zlarining ishlarida ko'rsatib o'tganlar. Shu bilan birga, ular iqtisodiyotda barqarorlikni ta'minlashda hal etiladigan vazifalardan kelib chiqib, fiskal siyosatni to'sqinlik qiluvchi yoki rag'batlantiruvchi siyosatlar ekanligini isbotlashga harakat qilganlar. Ular o'zlarining "Ekonomiks" asarida "Fiskal siyosatning asosiy maqsadi- ishsizlik va inflyatsiyani tugatishdan iboratdir. Inqiroz davrida fiskal siyosatning rag'batlantiruvchilik roli to'g'risidagi masala paydo bo'ldi va u quyidagilarni o'z ichiga oladi: davlat xarajatlarini ko'payishi yoki soliqlarning kamayishi yoxud ikkalasini ham birga qo'shib olib borish. Aksincha, agarda iqtisodiyotda ortiqcha talab tufayli inflyatsiya sodir bo'lsa, bunga to'sqinlik qiluvchi fiskal siyosat mos keladi. To'sqinlik qiluvchi fiskal siyosat o'z ichiga quyidagilarni oladi: davlat xarajatlarni kamayishi yoki soliqlarning kamayishi, yoxud ikkalasini qo'shib olib borilishi" [3]. Bunda iqtisodiy rivojlanish maqsadlarining tez o'zgaruvchanligi va shunga mos ravishda soliq siyosatining yo'nalishlarini o'zgartirilishi to'g'risidagi xulosalarni uchratish mumkin.

Fikrimizcha, soliq tizimining eng muhim vazifasi ishlab chiqarishni rivojlantirishga, tabiiy va moliyaviy resurslardan, mol-mulklardan samarali foydalanishga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatishdir. Ammo soliqlarning mohiyati va funksiyalari to'g'risida yagona fikr yo'qligi buborada ilmiy izlanishlarni olib borishni zarur qilib qo'yimoqda.

Professor Q.Yahyoyev o'zining "Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti" darsligida soliq funksiyalari to'g'risida fikr yuritib, "soliqlarning funksiyalari ularning mohiyatini, amaliyotda harakat qilayotganligini ko'rsatadi. Shunday ekan, funksiya doimo yashab, soliq mohiyatini ko'rsatib turishi zarur" [4] - deydi. Bizning fikrimizcha, funksiya soliq mohiyatini o'zida aks ettirishi lozim. Chunki, bugun paydo bo'lib, ertaga yo'q bo'lib ketadigan funksiyalar soliq mohiyatini o'zida to'liq aks ettirmaydi. Zero, soliq funksiyalari doimiy, qat'iy takrorlanib turadigan bo'lishi lozim. Demak, shunday uslubiy yondashuvdan kelib chiqib, soliqlar funksiyasini aniqlash kerak. Bizning fikrimizcha, xorijlik va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan soliqlarga berilgan ta'riflarni hamda o'rganilganlik darajasini keltirish o'rinli.

Xorijlik iqtisodchi olim, professor D.G.Chernikning fikricha, "Soliqlar davlat tomonidan xo'jalik subektlari va fuqarolardan qonuniy tartibda o'rnatilgan stavkalarda undirib olinadigan majburiy yig'imlarni o'zida aks ettiradi" [5].

Keltirilgan ta'rif to'g'ri va hamma uchun tushunarli, albatta. Ammo bizningcha, bu ta'rif soliqlarning tashkiliy-huquqiy tomonlarini to'liq o'zida aks ettirmaydi. Yana bir tomoni, soliqlar nima maqsadda undirib olinadi, degan savolga ham to'liq javob



bera olmaydi.

SH.Gataulinning “Soliqlar va soliqqa tortish” nomli kitobida soliqlarning eng sodda ta’rifini quyidagicha beradi: “Soliqlar bu davlat sarf-xarajatlarining asosiy manbai bo‘lib, iqtisodiyotni tartibga soluvchi va daromadlarni barqarorlashtiruvchi vositadir” [6].

Ushbu ta’rifda soliqlarni nima maqsadda yig‘ib olinishi va davlatning undan nima maqsadda foydalanishi ko‘rsatilgan, ammo, bizningcha, soliqlarning huquqiy va majburiylik tomoni bunda ham aks ettirilmagan.

Mamlakatdagi ba’zi bir iqtisodchilari soliqlarni milliy daromadni taqsimlash vositasi sifatida ifodalashga harakat qilganlar: “Soliqlar-milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida uning bir qismini davlat ixtiyoriga olish shaklidir” [7].

Professor O. Olimjonovning fikriga ko‘ra: “Soliqlar davlat va jamiyatning pul mablag‘lariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish maqsadida qonun tomonidan belgilab qo‘yilgan hajmda va o‘rnatilgan muddatda jismoniy va huquqiy shaxslardan davlat ixtiyoriga majburiy ravishda undirib olinadigan to‘lovlardir” [8]. Fikrimizcha, soliqlarga berilgan mana shu ta’rif ularning mohiyatini kengroq ochib beradi.

Yuqorida nomlari qayd etilgan olim va mutaxassislarning qarashlarini tahlil qilib, soliqlarga shunday ta’rif berishni maqsadga muvofiq deb topdik: “Soliqlar rasmiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan belgilab qo‘yilgan meyor doirasida qonun yo‘li bilan undirilib davlat byudjetiga yo‘naltiriladigan majburiy pul to‘lovi hisoblanadi”. Haqiqatan, byudjetga mol-mulk yoki ma’lum bir qiymatdagi buyumlar emas, faqatgina pul to‘lovlari undirilishi qonunchilikda o‘z aksini topgan.

Soliq tizimining dolzarbligi, avvalo, uni tashkil etadigan va boshqaradigan davlat tuzilmalariga bog‘liq. Soliqlar davlatning jamiyat maqsadi va vazifalarini bajarish uchun foydalanadigan iqtisodiy quroli hisoblanadi. Demak, soliqning mohiyati va vazifalarini aniqlashda davlat faoliyatidan kelib chiqish lozimdir.

Soliqlarning fiskal funksiyasi orqali soliqqa tortishning asosiy vazifasi davlatning moliyaviy mablag‘larini shakllantirish, shuningdek, davlatning umudavlat va maqsadli vazifalarini amalga oshirish uchun mablag‘larni jamg‘arishdan iborat.

Mamlakatda mustaqil soliq tizimini shakllantirish borasidagi tadbirlar boshlangandan shu kunga qadar, bosqichma-bosqich keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqdaki bugungi kunga kelib, ushbu islohotlarning samarasi o‘laroq, nisbatan barqaror bo‘lgan soliq tizimi shakllantirildi.

Ammo mazkur jarayon muayyan vazifalarni amalga oshirish orqali amalga oshirilayotganini e’tirof etish lozim. Chunki respublikamiz iqtisodiyotida muqaddam bozor iqtisodiyoti talablariga javob beruvchi soliq tizimi mavjud bo‘lmagan.





Shundan kelib chiqib, malakali kadrlar bilan ta'minlanmaganlik, meyoriy hujjatlardagi noaniqliklar kabi muammolar bilan bir qatorda, soliq madaniyatining yetarli darajada emasligini ham ta'kidlash o'rinlidir. Qulayliklar shundan iboratki, bozor iqtisodiyoti amal qilayotgan rivojlangan mamlakatlar soliq tizimiga oid tajribalaridan respublika soliq tizimini shakllantirishda foydalanish imkoniyati ham mavjud bo'lib, bundan muayyan darajada foydalanilmoqda. Lekin bir qator omillarni, jumladan har bir mamlakatni o'ziga xos milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda bir mamlakatda barqaror hisoblangan soliq tizimi ikkinchi bir mamlakat iqtisodiyoti uchun aks ta'sir etishi mumkin.

Shuning uchun mamlakat soliq tizimi barqarorligini ta'minlashda xorijiy mamlakatlar tajribalaridan foydalanish bilan birga, soliqlar va soliqqa tortish borasidagi klassik hamda zamonaviy soliq nazariyalarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF-4947-sonli Farmoni.
2. Keynes, John M. The General Theory of Employment, Interest and Money // The Collected Writings of John Maynard Keynes. — Cambridge University Press, 2012. — Vol. VII. — 428 p. — ISBN 9781139524278.
3. Makkonell K., Bryu S. Ekonomiks: Prinsipi, problemi i politika. — Moskva: (Yahyoyev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. — Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2003. — 14 b.)Respublika, 1992. — S.249
4. Chernik D. Nalogi v rinochnoy ekonomike. // Finansi, — Moskva, 1992. - № 3. — S. 19.
5. Gataulin SH. Soliqlar va soliqqa tortish. —Toshkent: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1996. — 18 b.
6. O'lmasov A., Sharifxo'jayev M., Iqtisodiyot nazariyasi. —Toshkent: Mehnat, 1995. — 377 b.
7. Olimjonov O. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida soliq siyosati. // Hayot va iqtisod. — Toshkent, 1992. - № 2. — 8-12-b.
8. Byudjet-soliq siyosati/ T.S. Malikov, P.T. Jalilov; T.S. Malikovning umumiy tahrir ostida; Toshkent moliya instituti -T.: Akademnashr, -2011. 3-b.